

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 3195,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 46,8 ming kishiga yoki 1,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1376,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,1 %), qishloq aholisi soni 1818,4 ming kishini (56,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **46,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **59,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **9,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **15,5 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)

Tirik
tug'ilganlar
59,3 ming bola

Tabiiy
o'sish
21,1
ming
kishi

Aholining
umumiy
o'sishi
63,4 ming
kishi

Ko'chib
kelganlar
8,6 ming kishi

Mexanik
o'sish
(kamayish)
-3,1 ming
kishi

Vafot etganlar
9,5 ming kishi

Ko'chib
ketganlar
11,7 ming kishi

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2017-2018 yillar 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	2017 yil	2018 yil*	O`tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	3131,8	3195,2	102,0
Qarshi sh.	266,6	270,4	101,4
Shahrisabz sh.	133,9	136,5	101,9
<i>tumanlar:</i>			
G`uzor	195,0	198,3	101,6
Dehqonobod	139,8	142,8	102,1
Qamashi	258,2	263,4	102,0
Qarshi	235,3	240,3	102,1
Koson	270,9	276,6	102,1
Kitob	252,9	257,6	101,8
Mirishkor	114,2	116,3	101,8
Muborak	82,7	84,4	102,1
Nishon	143,9	147,7	102,6
Kasbi	187,3	190,7	101,8
Chiroqchi	386,5	396,9	102,7
Shahrisabz	213,6	217,0	101,6
Yakkabog`	251,0	256,3	102,1


*) dastlabki ma`lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktabr holatiga eng ko`p aholi soni Chiroqchi tumanida 396,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,4 %ni) va Koson tumanida 276,6 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 270,4 ming kishini (8,5 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 84,4 ming kishi (2,6 %) va Mirishkor tumanida 116,3 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Nishon tumanida 3,6% ni, Chiroqchi tumanida 2,7% ni, Dehqonobod va Koson tumanlarida 2,1% ni, Qamashl tumanida 2,0% ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahrida 1,4% ni va Shahrisabz tumanida 1,6 tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 59,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 23,9 promille bo'lgan).


Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Muborak tumanida (21,8 promilledan 24,7 promillega) va Qarshi shahrida (17,3 promilledan 20,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Nishon (26,4 promilledan 26,1 promillega) va Kasbi (24,4 promilledan 24,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar: 27,9 ming nafar **O'g'il bolalar:** 31,4 ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Qashqadaryo viloyati bo`yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-sentabr)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Qashqadaryo viloyati	55 527	59 262	106,7
Qarshi sh.	3440	4198	122,0
Shahrisabz sh.	2336	2480	106,2
tumanlar:			
G'uzor	3472	3676	105,9
Dehqonobod	2739	2888	105,4
Qamashi	4893	5007	102,3
Qarshi	3784	3876	102,4
Koson	4844	5135	106,0
Kitob	4420	4490	101,6
Mirishkor	2092	2140	102,3
Muborak	1338	1545	115,5
Nishon	2808	2857	101,7
Kasbi	3388	3434	101,4
Chiroqchi	8279	9109	110,0
Shahrisabz	3135	3323	106,0
Yakkabog`	4559	5104	112,0

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 9,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga G'uzor tumani-da (4,5 promilledan 4,8 promillega) o'sgan bo'lib, nisbatan sezilarli darajada kamayishi Muborak (4,6 promilledan 3,9 promillega) Koson (4,0 promilledan 3,6 promillega), Qamashi (4,1 promilledan 3,8 promillega) Kasbi (4,5 promilledan 4,3 promillega), Chiroqchi (3,8 promilledan 3,6 promillega) va Qarshi tuman(4,6 promilledan 4,3 promillega)larida kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
5,2 ming
kishi

Ayollar:
4,2 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsienti (2018 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-sentabr)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Qashqadaryo viloyati	9583	9452	91,3
Qarshi sh.	858	858	100,0
Shahrisabz sh.	408	407	99,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	654	701	107,2
Dehqonobod	397	391	98,5
Qamashi	791	751	94,9
Qarshi	807	760	94,2
Koson	804	742	92,3
Kitob	672	686	102,1
Mirishkor	331	331	100,0
Muborak	280	244	87,1
Nishon	402	408	101,5
Kasbi	624	614	98,4
Chiroqchi	1081	1063	98,3
Shahrisabz	661	659	99,7
Yakkabog'	813	837	103,0

Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 55,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,6 %i o'simtalardan, 6,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 17,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 557 nafarni tashkil etib, ularning 66,8 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 6,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-sentabr

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 21,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-centabr oylarida 19,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
21,1 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 15,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuza tilgan bo`lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Yakkabog' (71,1 %), Koson (74,3%), Kitob (76,7 %), Dehqonobod (77,4%)tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsienti 0,5 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor tumanida (120,6 %), aksincha, asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Chiroqchi (55,1 %), Koson(59,6%), Shahrисабз shahri (61,0 %), Shahrисабз va Dehqonobob (61,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-sentabr)



Qashqadaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Qashqadaryo viloyati	19114	15514	81,2	1477	1081	73,2
Qarshi sh.	1326	1287	97,1	225	188	73,2
Shahrisabz sh. tumanlar:	698	572	81,9	100	61	61,0
G'uzor	1272	1034	81,3	78	59	75,6
Dehqonobod	1019	789	77,4	52	32	61,5
Qamashi	1630	1299	80,0	97	89	91,8
Qarshi	1416	1130	79,7	105	91	86,6
Koson	1769	1315	74,3	89	53	59,6
Kitob	1345	1031	76,7	165	116	70,3
Mirishkor	722	592	82,0	34	41	120,6
Muborak	573	477	83,2	36	27	75,0
Nishon	938	882	94,0	63	47	74,6
Kasbi	1188	1027	86,4	57	50	87,7
Chiroqchi	2482	2016	81,2	138	76	55,1
Shahrisabz	1064	874	82,1	122	75	61,5
Yakkabog'	1672	1189	71,1	116	76	65,5

Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 11,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 3,0 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar- sentabr	2018 yil yanvar- sentabr
Ko'chib kelganlar	8,5	8,6
Ko'chib ketganlar	11,5	11,7
Migratsiya saldosi	-3,0	-3,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qarshi shahrida (minus 0,6 ming kishi), Chiroqchi (minus 1,1 ming kishi), Kasbi (minus 0,5 ming kishi), va Qarshi tumanida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.